

AYOLLAR VA YOSHLAR SOHASIDA INKLYUZIV RIVOJLANISHNI TA'MINLASHDA DAVLAT DASTURLARINING SAMARADORLIGI

Akmuratov Otamurod Bobomurod o'g'li

Termiz davlat universiteti yuridik fakulteti 2- bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20806864>

Yoshlar global o'zgarish va innovatsiyalarning oldingi safida bo'lishi kerak.

Ularga imkoniyat va qo'llab-quvvatlash berilsa, ular taraqqiyot va tinchlikning asosiy harakatlantiruvchi kuchiga aylanishi mumkin.

Kofi Annan

Annotatsiya: Ushbu maqola ayollar va yoshlar sohasida inklyuziv rivojlanishni ta'minlashda davlat dasturlarining samaradorligini Finlandiya tajribasi markazida tahlil qiladi. Finlandiya Global Gender Gap Report¹ 2025 bo'yicha dunyoda 2-o'rinni egallab, ta'limda to'liq tenglik, yuqori ayollar mehnat ishtiroki va yoshlar siyosatida integratsiyalashgan yondashuv orqali yetakchilik qilmoqda. Shu bilan birga maqolada National Youth Work and Youth Policy Programme (VANUPO) 2024–2027 kabi dasturlar tahlil qilinadi. Maqola O'zbekiston Gender tenglik strategiyasi 2030 va Yoshlar siyosati asosida Finlandiya tajribasidan olingan takliflar asosida tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Inklyuziv rivojlanish, ayollar va yoshlar, davlat dasturlari samaradorligi, yoshlar siyosati (VANUDO), gender tenglik, Finlandiya modellari.

Inklyuziv rivojlanish BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlarining asosiy tamoyili hisoblanadi. Ayollar va yoshlar jamiyatning eng katta va dinamik guruhlar bo'lib, ularning to'liq ishtiroki nafaqat tenglikni, balki iqtisodiy o'sish va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlaydi². O'zbekistonda xam bu bo'yicha turli xil islohotlar amalga oshirilgan bo'lib, ularga “Yangi O'zbekiston” taraqqiyot strategiyasi, “O'zbekiston – 2030” strategiyasi va BMT Barqaror rivojlanish maqsadlari bilan uyg'unlashgan holda ayollar va yoshlar inklyuziv rivojlanishida sezilarli qadamlar tashlagan. Asosiy hujjatlar biri bu Oliy Majlis Senatining 2021-yil 297-IV-sonli qarori asosida tashkil etilgan “2030-yilga qadar gender tenglikka erishish” strategiyasi hisoblanadi. Ushbu strategiya 61 ta maqsadli ko'rsatkichni o'z ichiga oladi. U siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy sohalarida teng huquq va imkoniyatlarni ta'minlash, zo'ravonlikka qarshi kurash, gender statistikasini takomillashtirishga qaratilgan. Shu bilan birga bu asosida har yili alohida kompleks dasturlar tasdiqlanadi³. Shuningdek, Yoshlar siyosati konsepsiyasi asosida ta'lim, bandlik, sog'liq va ijtimoiy faollikni oshirishga alohida e'tibor qaratildi. “Yoshlar daftari” tizimi orqali 2025-yilda 1 millionga yaqin yosh ijtimoiy-iqtisodiy qo'llab-quvvatlandi va subsidiyalar berildi⁴. 2020–2025 yillarga mo'ljallangan Inklyuziv ta'lim konsepsiyasi asosida 530 dan ortiq maktabda inklyuziv tizim joriy etildi. UNICEF va Yevropa Ittifoqi yordami asosida nogironligi bo'lgan bolalar uchun individual dasturlar, tajriba-resurs markazlari tashkil etildi⁵. Shu bilan

¹ Global Gender Gap Report (Global gender tenglik bo'shlig'i hisoboti) — Jahon iqtisodiy forumi (World Economic Forum — WEF) tomonidan 2006 yildan beri har yili nashr etiladigan eng uzoq muddatli xalqaro indeks bo'lib, dunyodagi gender tenglik darajasini o'lchaydi va mamlakatlarni solishtiradi.


² <https://sdgs.un.org/goals>

³ <https://lex.uz/docs/-5466673>

⁴ <https://gov.uz/en/nurota/news/view/62398>

⁵ https://raqamlitalim.trm.uz/uploads/metodic_guide_pdf_file/1757936978.pdf

birga Parlamentda ayollar ulushi ikki baravar oshdi. Gender Equality and Governance Index (GEGI)⁶ bo'yicha O'zbekiston 103-o'ringdan 52-o'ringa ko'tarildi.



GEGI (Gender Equality and Governance Index) — Gender tenglik va boshqaruv indeksi bo'lib, gender tenglik darajasini baholaydigan xalqaro indeksdir. U gender diskriminatsiyasini keng ko'lamda o'rganadi va mamlakatlarning ayollar huquqlari, imkoniyatlari va boshqaruvdagi ishtirokini solishtiradi. Ushbu indeks 158 ta mamlakatni qamrab oladi. Indeks 60 ta omil va ko'rsatkichlardan foydalanib, 5ta yo'nalish ya'ni boshqaruv va tenglik, ta'limdagi tenglik, ayollar mehnati va boshqaruvdagi isgtiroki, tadbirkorlik va biznes yuritish, ayollarga nisbatan zo'ravonlik kabi yo'nalishlar bo'yicha davlatlarni baholaydi⁸.

Table 2. GEI Top 20 Countries Table

COUNTRY	INDEX SCORE	RANKINGS
Belgium	86.1	1
Spain	84.9	2
Iceland	84.7	3
Italy	84.0	4
Portugal	84.0	4
Norway	83.8	6
Sweden	83.7	7
United Kingdom	83.6	8
Canada	83.4	9
Germany	82.9	10
France	82.9	10
New Zealand	81.7	12
Finland	81.7	12
Cyprus	81.3	14
Ireland	81.2	15
Netherlands	80.4	16
Latvia	80.0	17
Denmark	79.6	18
Australia	79.3	19
Croatia	78.9	20

Table 3. GEI Bottom 20 Countries Table

COUNTRY	INDEX SCORE	RANKINGS
Afghanistan	19.2	158
Iran, Islamic Republic of	35.5	157
Mauritania	39.7	156
West Bank and Gaza	40.7	155
Qatar	41.1	154
Kuwait	41.6	153
Oman	42.2	152
Syria	42.7	151
Cameroon	45.1	149
Niger	45.1	149
Bangladesh	46.0	148
Brunei Darussalam	46.6	147
Mali	47.0	146
Libya	47.1	145
Jordan	47.3	144
Iraq	48.0	143
Chad	48.9	142
Nigeria	49.5	141
Lebanon	49.7	139
Pakistan	49.7	139

9

⁶ GEI (Gender Equality and Governance Index) — Gender tenglik va boshqaruv indeksi bo'lib, gender tenglik darajasini baholaydigan xalqaro indeksdir. U gender diskriminatsiyasini keng ko'lamda o'rganadi va mamlakatlarning ayollar huquqlari, imkoniyatlari va boshqaruvdagi ishtirokini solishtiradi.

⁷ <https://daryo.uz/en/2026/02/15/uzbekistan-climbs-to-52nd-in-global-gender-equality-and-governance-index/>

⁸ Global Governance Forumning "Gender Equality and Governance Index 2024/2025" hisoboti

⁹ <https://globalgovernanceforum.org/wp-content/uploads/2024/12/Gender-Equality-and-Governance-Index-20242025-A-Critical-Time-for-Women-to-Lead.pdf>

Indeksning yuqori o'rinlarida Belgiya davlati, eng pastki o'rinda esa Afg'oniston davlatini ko'rishimiz mumkin.

COUNTRY	INDEX SCORE	2024 RANKINGS	2022 RANKINGS	CHANGE
Austria	76.5	33	17	-16
Czech Republic	76.3	34	19	-15
United States	76.1	35	32	-3
Panama	75.7	36	53	17
Slovakia	75.6	37	29	-8
Serbia	75.6	37	33	-4
Vietnam	75.4	39	71	32
Mexico	75.3	40	40	0
Montenegro	75.2	41	37	-4
Estonia	74.9	42	29	-13
Switzerland	74.4	43	20	-23
Romania	74.4	43	43	0
Greece	74.4	43	28	-15
El Salvador	73.8	46	40	-6
Brazil	73.5	47	55	8
Paraguay	73.4	48	46	-2
Moldova	73.2	49	56	7
Uruguay	73.0	50	52	2
Mongolia	73.0	50	44	-6
Uzbekistan	72.8	52	103	51
Nicaragua	72.5	53	62	9
Philippines	72.4	54	82	28
Israel	71.4	55	45	-10
Singapore	71.0	56	66	10
Albania	70.9	57	51	-6
South Africa	70.8	58	47	-11
North Macedonia	70.8	58	56	-2
South Korea	70.6	60	61	1
Colombia	70.4	61	60	-1
Sierra Leone	70.4	61	121	60
Morocco	70.3	63	96	33
Ecuador	70.2	64	48	-16

10

GEGI 2024/2025 hisobotiga ko'ra (Global Governance Forum), O'zbekiston 103-pog'onadan 52-pog'onaga (+51 pog'ona) ko'tarilgan va dunyodagi eng tez yaxshilangan mamlakatlardan biri hisoblanadi. Bu "Yangi O'zbekiston" strategiyasi, Gender tenglik strategiyasi 2030, "Ayollar daftari", huquqiy islohotlar, zo'ravonlikka qarshi qonunlar va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash natijasidir. Biroq, yanada yuqori pog'onalarga chiqish uchun boshqa mamlakatlarning muvaffaqiyatli tajribasini o'rganish foydali. Filippin gender tenglik sohasida Osiyo mintaqasida yetakchi mamlakat bo'lib, qisqa vaqt ichida sezilarli yutuqlarga erishgan. Gender Equality and Governance Index (GEGI) 2024/2025 da Filippin 28 pog'ona ko'tarilib, 158 mamlakat orasida 54-o'rinni (ball — 72.4) egallagan. Shu bilan birga, World Economic Forum Global Gender Gap Report 2025 da 20-o'ringa chiqib, Osiyoda eng yuqori ko'rsatkichni (78.1% gender parity) ko'rsatgan va mintaqada yetakchi qolgan. Bu tez o'sish Filippinning institutsional, huquqiy va ijtimoiy yondashuvlari natijasidir¹¹. Filippin gender tenglikni kompleks va institutsional darajada hal qilgan. Asosiy muvaffaqiyat kaliti — Magna Carta of Women bo'lib, bu qonun ayollarga nisbatan diskriminatsiyani bartaraf etish, huquqlarini himoya qilish va jamiyat rivojida ayollarning faol ishtirokini ta'minlashga qaratilgan. U ayollarning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarini kafolatlaydi¹².

Finlandiya davlati ham gender tenglik bo'yicha dunyoda yetakchi hisoblanadi. Global Gender Gap Report 2025 ga ko'ra, Finlandiya 87.9% gender bo'shlig'ini yopgan holda 2-o'rinda turadi. Ta'limda to'liq tenglik erishilgan, ayollar mehnat ishtiroki yuqori va yoshlar siyosati integratsiyalashgan yondashuv orqali ijtimoiy istisno qilishni oldini oladi. Bu muvaffaqiyat ma'lumotlar asosidagi siyosat kuchli institutsional mexanizmlar va fuqarolik jamiyati

¹⁰ <https://globalgovernanceforum.org/wp-content/uploads/2024/12/Gender-Equality-and-Governance-Index-20242025-A-Critical-Time-for-Women-to-Lead.pdf>

¹¹ <https://aseanenergy.org/blogs/breaking-barriers-embracing-change-a-closer-look-at-the-philippines-national-gender-policies>

¹² <https://equalmeasures2030.org/press/philippines-places-70th-in-2024-sdg-gender-index/>

hamkorligi natijasidir. 1906-yilda dunyoda birinchi bo'lib ayollarga to'liq siyosiy huquqlar (saylash va saylanish huquqi) berilishi va bu huquqning keyingi 120 yil davomida doimiy ravishda amalda bo'lishi. Bu bitta tarixiy qaror Finlandiyaning butun jamiyatini o'zgartirdi. Ayollar darhol siyosiy jarayonga kirdi, 1907 yilda birinchi ayol deputatlar saylandi, qaror qabul qilishda ishtirok etdi va jamiyatning barcha sohalari ta'lim, mehnat, oila siyosati, ijtimoiy xizmatlar ayollar manfaatlarini hisobga olgan holda shakllandi¹³. Taklif sifatida shuni aytishimiz joizki, Davlatimizda faoliyat olib borayotgan davlat korxonalari va yirik xususiy kompaniyalar kengashlarida 40% ayollar kvotasini joriy etish va Mahalliy kengashlar, viloyat hokimliklari va markaziy vazirliklarda rahbarlik lavozimlarining kamida 40% ini ayollar egallashi, buni barcha yuqori pog'onalariga erishgan davlatlar tajribasida ko'rishimiz mumkin. Hozirgi holatda ayollar siyosiy va rahbarlik lavozimlarida hali yetarli emas. Bu "shisha shift"¹⁴ni saqlab turadi va qaror qabul qilish jarayonlarida ayollar manfaatlarini yetarli hisobga olinmaydi. Bu taklifni joriy etish orqali davlatda ish haqi farqi qisqaradi, ayollar tadbirkorligi kuchayadi, yosh qizlar uchun rol modellar ko'payadi va butun jamiyat inklyuzivligi oshadi. Jahon banki hisobiga ko'ra, ayollar to'liq ishtirok etsa, O'zbekiston YAIMi 29% ga o'sadi. O'zbekiston allaqachon "Ayollar daftari", Gender strategiyasi va huquqiy islohotlar orqali yaxshi asos yaratgan. Bitta shu kvota islohoti mavjud dasturlarni kuchaytirib, indekslarda tezroq yuqorilash imkonini beradi.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, ayollar va yoshlar sohasida inklyuziv rivojlanishni ta'minlashda davlat dasturlarining samaradorligi asosan siyosiy iroda, institutsional mexanizmlar va ma'lumotlar asosidagi yondashuvga bog'liq ekanligini Finlandiya va Filippin tajribalari yaqqol namoyon etadi. Asosiy xulosa shuki, davlat dasturlari samaradorligi faqat moliyaviy yordam yoki alohida loyihalarda emas, balki ayollarning siyosiy va qaror qabul qilish jarayonlaridagi real ishtiroki, kuchli huquqiy asos va doimiy monitoringida yotadi. O'zbekiston bu tajribalarni o'z milliy sharoitiga moslashtirib amalga oshirsa, barqaror inklyuziv rivojlanishga erishish imkoniyati yuqori bo'ladi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. <https://sdgs.un.org/goals>
2. <https://lex.uz/docs/-5466673>
3. <https://daryo.uz/en/2026/02/15/uzbekistan-climbs-to-52nd-in-global-gender-equality-and-governance-index/>
4. <https://gov.uz/en/nurota/news/view/62398>
5. https://raqamlitalim.trm.uz/uploads/metodic_guide_pdf_file/1757936978.pdf
6. Global Governance Forumning "Gender Equality and Governance Index 2024/2025" hisoboti.
7. <https://globalgovernanceforum.org/wp-content/uploads/2024/12/Gender-Equality-and-Governance-Index-20242025-A-Critical-Time-for-Women-to-Lead.pdf>
8. <https://aseanenergy.org/blogs/breaking-barriers-embracing-change-a-closer-look-at-the-philippines-national-gender-policies>
9. <https://equalmeasures2030.org/press/philippines-places-70th-in-2024-sdg-gender->

¹³ <https://www.un.org/womenwatch/confer/beijing/national/finisnap.htm>

¹⁴ Bu davlat organlarida bo'ladigan ko'rinmas to'siqlar hisoblanadi

index/

10. <https://www.un.org/womenwatch/confer/beijing/national/finisnap.htm>
11. <https://globalgovernanceforum.org/initiatives/gender-equality-governance-index/>
12. https://eige.europa.eu/sites/default/files/documents/ti_pubpdf_mh0417333enn_pdfweb_20171030101356.pdf
13. https://finlandabroad.fi/web/gbr/current-affairs/-/asset_publisher/4ojVRXvbDRVa/content/gender-equality-a-cornerstone-of-finland-s-welfare-state/384951
14. <https://www.quora.com/Why-does-Finland-claim-to-have-gender-equality-when-they-still-have-forced-service-for-men-only-with-jail-as-an-option>
15. <https://gov.uz/oz/advice/589/document/2711>